

**“Qishloq xo‘jalik mahsulotlarni qayta ishlash texnologiyasi, standartlash
va sertifikatlash” kafedrasining assistenti Sh.Sh.Nurmatovning
“GLOBAL G.A.P standartlarini joriy etish” mavzusidagi ochiq amaliy
mashg‘ulot darsining ishlanmasiga**

TAQRIZ

Amaliy mashg‘ulot darsi mavzusi o‘quv dasturi va fanning ishchi o‘quv dasturi (sillabusi) rejasiga mos keladi, amaliy mashg‘ulot matni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda uslubiy tomondan to‘g‘ri taqdim etilgan. Dastlab amaliy mashg‘ulot darsi mavzusi va rejasini, uning maqsadi va vazifalari, keyin esa amaliy mashg‘ulot matni keltirilgan. Bunda amaliy mashg‘ulot matni o‘qitishning pedagogik texnologiyasiga asoslangan va o‘quv faoliyati natijalari ko‘rsatilgan.

Ushbu amaliy mashg‘ulot ishlanmasiga “GLOBAL G.A.P standartlarini joriy etish”, O‘zbekistonda GLOBAL G.A.P. standartlarini joriy etishning istiqbollari haqida tushunchalar berish, GLOBAL G.A.P. – standartlari dunyo bo‘yicha tan olingan va xalqaro savdoda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun eng ko‘p qo‘llanilayotgan standartlari, GLOBAL G.A.P. bu etishtirilayotgan mahsulot xavfsizligini oshirish va sifatini yaxshilashga yordam beruvchi tavsiyalar, sertifikatlashtirish haqida kelishish, sertifikat muddatini uzaytirishi, GLOBAL G.A.P. sertifikatiga ega bo‘lish uchun quyidagi talablar bajarilishi metodikasi bayon etilgan. Amaliy mashg‘ulotdan vazifalar: “Aqliy hujum” savollari, “Venn diagrammasi” grafik organayzeri, “Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim grafik organayzeri (BBB)”, nostandart testlar, nazorat savollari va adabiyotlar ro‘yxati berilgan.

Sh.Sh.Nurmatovning “GLOBAL G.A.P standartlarini joriy etish” mavzusidagi amaliy mashg‘ulot darsi taqdimoti hozirgi zamon ta‘lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb hisoblayman va uni amaliy mashg‘ulotiga foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**“Veterinariya farmatsevtikasi”
kafedrasi dotsenti, k.f.n.**



A.H.Yusupov

“Qishloq xo‘jalik mahsulotlarni qayta ishlash texnologiyasi, standartlash va sertifikatlash” kafedrasining assistenti Sh.Sh.Nurmatovning “GLOBAL G.A.P standartlarini joriy etish” mavzusidagi ochiq amaliy mashg‘ulot darsining ishlanmasiga

TAQRIZ

Biomahsulotlar metrologiyasi, standartizatsiyasi va sertifikatsiya asoslari fanining amaliy mashg‘ulot darsi mavzusi ushbu fanning o‘quv dasturi ishchi o‘quv dasturi (sillabus) rejasiga mos keladi. Amaliy mashg‘ulot matnida mavzu mazmunan yetarlicha to‘liq yoritilgan bo‘lib, u yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda uslubiy tomondan to‘g‘ri taqdim etilgan. Amaliy mashg‘ulot darsi mavzusi va rejasini, uning maqsadi va vazifalari ko‘rsatib o‘tilgach, keyin Amaliy mashg‘ulot matni keltirilgan. Ishlanma amaliy mashg‘ulot darslari o‘qitishning pedagogik texnologiyasiga asoslangan va o‘quv faoliyatida ahamiyati ko‘rsatilgan.

Ushbu amaliy mashg‘ulotda “GLOBAL G.A.P standartlarini joriy etish” ning muhim yo‘nalishlari: Sifat menejmenti tizimi (SMT) va bajarilishi majburiy bo‘lgan talablar, Sertifikatlash muddati, sertifikatlashda sertifikatning amal qilish davomiyligi, ishlab chiqaruvchilarni tekshirish va audit qilish grafik uslubi bayon etilgan. Bundan tashqari ishlanmada nazorat savollari, test savollari, vazifa va aqliy hujum savollari, adabiyotlar ro‘yxati ham keltirilgan.

Yuqoridagilarga asoslanib, Sh.Sh.Nurmatovning “GLOBAL G.A.P standartlarini joriy etish” mavzusidagi amaliy mashg‘ulot darsi ishlanmasi hozirgi davr oliy ta‘lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb hisoblayman va uni o‘quv mashg‘ulotiga foydalanish uchun tavsiya qilaman.

Samarqand iqtisodiyot va servis
instituti “Servis” kafedrasining professori,
t.f.d.

R.Normahmatov

